TA’LIM JARAYONIDA KOMPETENTLIK YONDASHUVINI TADBIQ ETISHDA O‘QUV RESURSLARINI TANLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Turdiyev Alisher Sobirovich
Buxoro Osiyo Xalqaro Universiteti, I-bosqich magistratura talabasi

Qabul qilindi: 25.12.2025
Ko‘rib chiqildi: 26.12.2025
Tasdiqlandi: 27.12.2025

Kalit so‘zlar:
bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy ta’lim, kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, fanlararo integratsiya, integrativ-differensial yondashuv.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini dasturlash tillariga o‘qitishda kompetentlik yondashuvini joriy etishning shakllanishi va rivojlanish asoslari, uning mohiyati, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda tayanch kompetensiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, umumta’lim va ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlar talabalari fanlararo aloqalar orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Pedagogik va texnik bilimlar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalari ajratib ko‘rsatilib, ularni rivojlantirish mexanizmi hamda integrativ-differensial yondashuv masalalari tahlil etilgan.

Kirish. Jahon miqyosida axborot va raqamli texnologiyalarning ta’lim va ishlab chiqarish sohalariga jadal kirib kelishi kadrlar tayyorlash tizimini kompetentlik talablariga asoslangan holda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim tizimini isloh qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri mutaxassislarni tayyorlashda kompetentlik yondashuvini ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish hisoblanadi.

Kompetentlik yondashuvining yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdagi salohiyati hamda uni joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik ta’minotning yetarli darajada ishlab chiqilmagani, pedagog kadrlarni tayyorlashni ta’minlovchi fanlarning xilma-xilligi va ularning har birining bo‘lajak pedagog

uchun o‘ziga xosligi, kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qo‘shadigan hissasini aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, «Matematika va informatika» yo‘nalishi talabalari kasbiy faoliyat jarayonida o‘z mutaxassisligiga oid yangi axborotni izlash va qayta ishlash, shuningdek, ta’lim jarayonida zamonaviy va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Bu esa kognitiv-operatsion va shaxsiy-refleksiv komponentlarning rivojlanishiga, o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘zini boshqarish va baholash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, butun umr davomida ta’lim olishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida mustaqil rivojlanish, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash asosida dasturiy mahsulotlar yaratish, kasbiy faoliyatda tanqidiy tahlil, guruh va jamoada ishlash, qarorlar qabul qilish, yangi g‘oya va texnologiyalarni doimiy izlash orqali uzluksiz kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish, balki mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiruvchi, yangi texnologik yechimlarni tez va samarali o‘zlashtirish imkonini beradigan muayyan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarning mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sifatlar informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida alohida ahamiyatga ega, chunki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) mutaxassisni oliy ta’lim muassasasida tayyorlash jarayonida ham, uning maktabdagi amaliy faoliyati davomida ham jadal rivojlanib bormoqda. Shu sababli ushbu soha mutaxassislari uchun muhim kompetensiyalardan biri sifatida o‘z-o‘zini ta’lim olish, o‘zini rivojlantirish hamda innovatsiyalarni mustaqil ravishda ishlab chiqish qobiliyatlari e’tirof etiladi.

Kasbiy faoliyat jarayonida oliy ta’lim sifati mutaxassisni mustaqil va ijodiy tarzda kasbiy vazifalarni hal eta oladigan, pedagogik faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglaydigan shaxs sifatida tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogik ta’lim mazmunining uzviyligi va izchilligiga asoslanadi hamda uning samaradorligini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ta’lim sifatini ta’minlay oladigan mexanizm sifatida «Pedagogik ta’lim klasteri»ni alohida ta’kidlash joiz.

«Pedagogik ta’lim klasteri» ma’lum bir geografik hududda raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida o‘zaro

uzviy bog‘liq holda alohida, teng huquqli fanlar, texnologiyalar va inson resurslari integratsiyasini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Tarmoq manbalariga tayangan holda aytish mumkinki, **«klaster»** atamasi (inglizcha *cluster* — to‘plam, tugun, guruh, jamlanma, konsentratsiya, guruhlashuv, majmua) axborot texnologiyalari sohasidan kelib chiqqan bo‘lib, ma’lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik sifatida qaralishi mumkin hamda elementlarning birlashmasini ifodalaydi.

Klasterning asosiy maqsadi — uning ishtirokchilarining ta’limiy, ilmiy va innovatsion salohiyatini birlashtirish orqali nafaqat yuqori darajadagi fuqarolik va kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan, balki zamonaviy ta’lim sharoitida raqobatbardosh, innovatsiyalarni qabul qila oladigan, yangi ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda joriy etish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Biz ta’lim klasteri masalasi rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarda o‘rganilganini ko‘ramiz. Jumladan, oliy ta’lim tizimida klaster va innovatsion ta’limni tadqiq etgan Smirnov shunday yozadi: “Kasbiy ta’limda klaster yondashuvi G.V. Muxametzyanov, E.A. Korchagin, N.B. Pugachyova, A.V. Leontyevlar tomonidan ishlab chiqilgan; pedagogik dizayn va faoliyat nazariyasi V.V. Davidova, A.N. Leontyev, V.P. Bespalko, G.I. Ibragimova, B.Ch. Lednev, M.I. Mahmutov, V.A. Slasteninlar tomonidan asoslangan; uzluksiz ta’lim konsepsiyasi B.S. Gershunskiy, G.V. Muxametzyanova, A.M. Novikova tomonidan ishlab chiqilgan; oliy ta’lim tizimining mintaqaviy rivojlanish jihatlari A.G. Abrosimov, N. Vasilchenko, V.S. Ivanov, V.P. Kovalevskiy, I. Mayburova, L. Milyaeva, A. Rikun, S. Smirnovlar tomonidan o‘rganilgan, ta’lim xizmatlari bozori esa A. Avetisova, I. Berezina, Sh. Valiyeva, A. Zapesoskiy, I. Molchanova tomonidan tadqiq etilgan”.

Ushbu holat «ta’lim klasteri» tushunchasining nazariy asoslari rossiyalik olimlar tomonidan yetarlicha keng va batafsil yoritilganidan dalolat beradi. Ular tomonidan berilgan ta’riflar o‘zbek tadqiqotchilarining qarashlari bilan o‘zaro uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldiradi. Xususan, O.E. Gavrilovaning fikriga ko‘ra, «Ta’lim klasteri — bu o‘zaro bog‘langan hamda korxonalar tarmog‘i bilan sheriklik munosabatlari asosida birlashgan kasbiy ta’lim muassasalarining integratsiyalashgan birlashmasidir».

Boshqa manbalarda esa “Ta’lim klasteri — bu fan–texnologiya–biznes innovatsion zanjiri doirasida gorizontal aloqalar asosida o‘zaro ta’lim, o‘zaro o‘rganish va o‘z-o‘zini ta’lim olish vositalari tizimi» sifatida ta’riflanadi.

Shuningdek, "Ta'lim klasteri — bu maktabdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzluksiz ta'limni ta'minlovchi noyob tizim" deb ham izohlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: MDH davlatlari ta'lim tizimida «klaster» tushunchasi ta'limning uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash maqsadida barcha ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasi va hamkorligini anglatadi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligiga erishishga yo'naltirilgan.

Amerika, Yevropa va Afrika manbalarini tahlil qilish asosida aytish mumkinki, ushbu mintaqalarda **«maktab klasteri»** (inglizcha — *school cluster*, nemischa — *Schulcluster*) alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tushunchani to'g'ri va aniq izohlash, o'z navbatida, quyidagi terminlar mazmuniga to'xtalishni taqozo etadi.

Yevropada maktab klasteri deganda ma'muriy va ta'limiy maqsadlarda tengsizlikni bartaraf etish uchun geografik jihatdan bir-biriga eng yaqin joylashgan maktablarning birlashmasi tushuniladi.

V. Chikoko fikriga ko'ra, **"klasterlar hududiy jihatdan yaqin joylashgan maktablarning ta'lim sifatini va unga bo'lgan talabni oshirishga yo'naltirilgan guruhlanishi va birlashmasini anglatadi"**. T. Tekaligne esa klasterni ma'muriy va ta'limiy maqsadlar uchun birlashtirilgan maktablar guruhi sifatida ta'riflaydi.

Maktablarni klasterlarga birlashtirish rivojlanayotgan mamlakatlarda maktablarni qo'llab-quvvatlashning xalqaro standartiga aylangan, chunki davlatlar o'z ta'lim tizimlarida uchrayotgan ko'plab muammolarni hal etishga intilmoqda. F. Dittmar, V. Chikoko va T. Tekaligne "maktab klasteri" ni geografik jihatdan yaqin joylashgan maktablar guruhi sifatida ta'riflaydilar. Ushbu ta'rif to'g'ri bo'lishiga qaramay, boshqa manbalarda maktab klasteri nafaqat geografik jihatdan yaqin bo'lgan, balki ta'lim sifatini oshirish hamda ma'muriy vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida o'qitish va o'rganish jarayonida resurslardan birgalikda foydalana oladigan maktablar guruhi sifatida ham izohlanadi.

Maktab klasterlarini tashkil etish quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

1. mutaxassislar o'rtasida tajriba va ko'nikmalar almashinuvi orqali o'qitish va mustaqil ta'limni takomillashtirish;
2. o'qituvchilarni rivojlantirish, boshqarish va qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim sifatini oshirish;
3. o'qituvchilar va maktab direktorlarining kasbiy kompetentligini yuksaltirish;

4. samarali kasbiy tarmoq orqali «yakka holda faoliyat yuritish» holatini bartaraf etgan holda bir nechta kichik maktablarning resurslarini birlashtirishda ma'muriyatga ko'maklashish;
5. markazlashmagan qarorlar qabul qilish, mas'uliyat va hisobdorlikning yuqori darajasiga erishish.

Maktab klasterlarini joriy etishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. maktablarni boshqarish va qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi;
2. o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi;
3. yuqori natijalarga erishish uchun barcha manfaatdor tomonlarning qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishi zarurati;
4. aksariyat maktablarning nisbatan yakkalangan holda faoliyat yuritishi.

Klaster tarkibidagi maktablardan biriga klaster markazi - tayanch maktab vazifasi yuklatiladi va u muvofiqlashtiruvchi sifatida faoliyat yuritadi, oliy ta'lim muassasasi esa tayanch maktab–multiplikator uchun doimiy aloqa manbai bo'lib xizmat qiladi. Masalan, aniq bir vazifa, topshiriq yoki maslahat barcha maktablarga alohida yuborilmaydi, balki tayanch maktabga yetkaziladi va u o'z navbatida ushbu ma'lumotni klaster a'zosi bo'lgan boshqa maktablarga tarqatadi. Natijada ma'muriy masalalarni hal etish samaradorligi oshadi.

Germaniya ta'lim tizimi qoidalariga muvofiq, kamida 2 ta va ko'pi bilan 8 ta maktab o'zaro maktab klasterini tashkil etishi mumkin bo'lib, bunda o'quvchilar soni 200 nafardan kam bo'lmasligi va 2500 nafardan oshmasligi lozim.

Ta'lim klasterlari turli mintaqalarning ta'lim tizimiga joriy etilgan bo'lsada, ularning tuzilmasi bir xil emas, har bir shakldan ko'zda tutilgan maqsadlar va erishilayotgan natijalar o'ziga xosdir. Shunga qaramay, ta'lim tizimiga klaster yondashuvini joriy etish va maktab klasterlarini shakllantirish orqali quyidagi umumiy maqsad va natijalarga erishish mumkin:

-ta'limning barcha bosqichlari (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus (kasbiy) ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim) ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, bu orqali o'zaro axborot va tajriba almashish, qo'shma loyihalarda ishtirok etish va boshqa imkoniyatlarni yaratish;

-ish beruvchilar talablari asosida yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini birgalikda ishlab chiqish;

-ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirish maqsadida talaba-internlarning maktab amaliyoti natijalarini oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish imkoniyati;

- oliy ta'lim muassasasida beriladigan nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatda zarur bo'lgan ko'nikmalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan kasbiy amaliyot samaradorligini oshirish;

-mavjud axborot resurslari, moddiy resurslar (binolar, inshootlar, maydonlar) hamda pedagogik resurslardan samarali foydalanish, bunda mavjud «resurslar» klaster ishtirokchilarining umumiy boyligi sifatida qaraladi va ularni maqsadli hamda oqilona taqsimlash asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Юлдашева Г.Т. Organization of creative activity of students based on innovative technologies. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences / Vol. 8 No. 5, 2020, Part II ISSN 2056-5852.

2. Юлдашева Г.Т. Талабаларда ўзини-ўзи ривожлантириш компетенциясини шакллантириш жараёнининг педагогик асослари. /Муғаллим ҳам узликсиз билимдендириу. № 3/1 – 2022.Илимий-методикалық журнал.Нукус,2022. ISSN 2181-7138. 26-28 бет.

3. Юлдашева Г.Т. Коммуникатив компетенция тушунчаси ва унинг мазмун моҳияти // "ЎзМУ хабарлари "Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети илмий журнали. – Тошкент, 2022. – № 1/5/1 – B. 228-231.

4. Юлдашева Г.Т. (2022). Компетенциявий ёндошувга асосланган таьлим // Journal of innovations in social sciences (Ўзбекистон).Таьлимни рақамлаштириш: асосий тенденциялар ва устувор вазифалар -2022 ISSN:2181-2594.57-61 бет.

5. Dilfuza Melievna Makhmudova, 2Bakhrom Ruzievich Tadjibaev, 3 Gavhar KholboevnaDusmurodova, 4 Gulshad Tileuovna Yuldasheva. Information and communication technologies for developin gcreative competence in the process of open teaching physics and maths. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation / Vol.24, Issue 09, 2020 ISSN: 1475-7192. (Scopus).

6. Юлдашева Г.Т. Применение информационно-коммуникационных технологий в начальных классах // Academic Research in Educational Sciences volume 2 | issue 11 | 2021 issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-Cite Factor 2020 21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1471-1478 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 1529 www.ares.uz

7. Юлдашева Г.Т. Методологические основы использования медиа технологий в повышении эффективности обучения / "Экономика и социум", №5(84), часть 2, http://www.iupr.ru1129-1133. (2021).

8. Юлдашева Г.Т. Тенденция развития навыков интерактивных онлайн курсов в дистанционных условиях современного общества. / "Экономика и социум", №5(84), часть 2, http://www.iupr.ru. 1134-1141. (2021).

9. Юлдашева Г.Т. Олий таьлимда талабаларни тарбиялаш тизимида тўгараклар фаьолиятининг аҳамияти / "Экономика и социум", №11(90) www.iupr.ru. . (2021).